

XURSHID DO`STMUHAMMADNING “YOLG`IZ” QISSASIDA
YOLG`IZLIK MOTIVINING AKS ETILISHI

Iskandarova Iqbol

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O`zbek tili va adabiyoti universiteti, O`zbek filologiyasi
fakulteti 410-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada adib Xurshid Do`stmuhhammadning “Yolg`iz” qissasi tahlil qilinib, qissadagi yolg`izlik motivi, undagi millat tuyg`usining ijodkor shaxs obrazida ifodalanishi yoritib berilgan. Qissa qahramonning yolg`izlikka mahkum hayoti va ruhiy holati, dardlari, qalb og`riqlari ichki monologlar vositasida ifodalanishi tadqiq etilgan.

Kalit so`zlar: Abdulla Qodiriy, yolg`izlik motivi, shaxs va jamiyat, uyg`onish va o`zlikni toppish, ijodkor shaxs, qahramon ruhiyati/

Kirish.

Xurshid Do`stmuhhammadning “Yolg`iz” qissasi o`zbek adabiyotida insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va hayotning murakkabligi haqida chuqur falsafiy mulohazalarini o`z ichiga olgan asarlardan biridir. Bu qissa insonning hayotdagi yolg`izlikka duch kelishi , uni his etishi va bu holatdan chiqish yo`llarini izlash haqida hikoya qilinadi. “Yolg`iz” qissasi asosan millat qayg`usi bilan yongan bir qalbning iktiroblarini, inson ruhiyatining nozik qirralarini ochib berishga qaratilgan. Unda hayotning nozik tomonlari, qahramonning jamiyat va o`z-o`zi bilan kurashi aks etadi. Yolg`izlik masalasi faqat bir shaxsning muammosi emas , balki jamiyatda ham dolzarb bo`lgan masala sifatida tasvirlanadi. Xurshid Do`stmuhammad qissada hayotiy hikoyatlar orqali insonning jamiyatdagi o`rnini, munosabatlarini va ba`zan o`zig abo`lgan begonaligini o`ta realistik va ta`sirchan tarzda ko`rsatadi.

Xurshid Do`stmuhhammadning “Yolg`iz” qissasida yolg`izlik motivi markaziy o`rinda turadi. Qissa davomida bu motiv faqat tashqi yolg`izlikni emas, balki, insonning ichki, ruhiy yolg`izligini ham aks ettiradi. Asar boshidan oxirigacha qahramonning o`zligini topishga bo`lgan intilishi va bu yo`lda yolg`izlikni boshdan kechirish jarayoni tasvirlanadi. Yolg`izlik motivi qahramonning o`z-o`ziga bo`lgan munosabati orqali chuqurroq ifodalanadi. O`zi va jamiyat o`rtasidagi begona bo`lishlik, boshqa odamlar bilan bog`lanishdagi noqulaylik va izolyatsiya-qahramonning ichki kechinmalarini shakllantiruvchi asosiy omillardir.

“Yolg`iz” nafaqat adabiy harakter, balki u o`zida milliy va umumbashariy xislatlarni jam qilgan ijodkor shaxs obrazi hamdir.”⁹²

Qahramon yolg`izlikni faqat tashqi muhitda emas, balki ichki, ruhiy bo`linish sifatida ham qabul qiladi. Bu voqeа qahramonning o`zligini anglash, ma`naviy uyg`onish

⁹² Rahmonova X. Xurshid Do`stmuhammad nasri badiiyati.-T.: Poytaxt exclusive, 2021.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

yo`lida kurashishni tasvirlash uchun muhim bir nuqtadir. “U o`zining ichki dunyosini topmoqchi bo`lgan, lekin o`zi bilan suhbat qurish qiyinligini tushungan edi. Yolg`izlik u uchun faqat tashqaridagi emas, ichidagi dunyosidagi ajralish edi”.⁹³

Yolg`izlikning ikki jihatini-tashqi va ichki bo`linish-muallif shunday ta`riflaydi: “Yolg`izlik har doim ham faqat yagona insonning taqdiri emas, balki jamiyatning o`zi bilan bo`lgan muammolarining yodgorligidir”.⁹⁴ Muallif bu orqali jamiyat va shaxs o`rtasidagi ziddiyatni, yolg`izlikning nafaqat shaxsiy , balki, jamiyat muammosi sifatida ham qaralashini ko`rsatadi.

“Yolg`iz” qissasida millat tuyg`usi ijodkor shaxs obrazida juda muhim o`rin tutadi. Qahramonning ruhiy izlanishlari , o`zligini topishga bo`lgan intilishi va ichki kurashi bilan birga , u milliy o`zlikni, xalqning tarixini va madaniyatini anglash yo`lida ham kurashadi. Millat tuyg`usi va milliy qadriyatlar qahramonning ichki izlanishlarida va unga bo`lgan ruhiy ma`naviy ko`makda ko`rinadi. Qahramon o`zining ijodiy faoliyatida millatning dardini va g`amini aks ettirishga harakat qiladi, ammo bu yo`lda yolg`izlikka duch keladi. “ U nafaqat o`zligini izlashda, balki millatning o`tmishi, bugungi va kelajagini ham o`z asarida aks ettirmoqchi edi . Biroq , har bir yangi so`z nafaqat yozilgan, balki o`zi bilan yangi yolg`izlikni olib keladi”.⁹⁵ Qahramonda millatni anglashdagi o`ta hissiy, shaxsiy va ijodiy jarayoni tasvirlanadi. Muallif qahramonning ijodkor sifatida xalqining madaniy merosini va tarixiy ahamiyatini qanday qabul qilishini ko`rsatadi. Millat tuyg`usining ijodkorlik jarayonidagi roli yolg`izlik bilan birga shakllanadi, chunki qahramon jamiyatning salbiy tomonlari va o`tmishdagi iztiroblarini o`z asarlarida ifodalaydi. “ Qahramon atrofida zohiran qaraganda odamlar ko`p, ammo uni tushunadigan, dardlarini his qiladigan, anglaydigan odam yo`q. Shuning uchun ham u o`zini ruhan, qalban yolg`iz his qilgandir, ehtimol”.⁹⁶

Milliy ruh va o`zlikni anglash jarayoni asar davomida qahramonning ichki holati bilan bog`liq bo`lib, u ijodkor sifatida millat qayg`usi bilan yashashga harakat qiladi: “O`zligini yo`qotib qo`ygan xalqning o`zi bo`lishi , balki faqat yolg`izlikka olib kelishi mumkin”.⁹⁷ Bu fikr millat tuyg`usining ijodkor shaxsdagi ifodasini , shaxsiy ruhiy izlanish va jamiyatning tarixiy xotirasi bilan bog`liq holda ifodalaydi.

Qissada qahramonning yolg`izlikka mahkum hayoti va ma`naviy, ruhiy izlanishlari aks ettirilgan. U hayotiy muammolarni hal qilish o`rniga , ichki dunyosiga chekinib , o`zini izlashga tushadi. Bu bosqichda muallif qahramonning ruhiy kechinmalarini chuqr psixologik nuqtayi nazardan tasvirlaydi: “Hayotning ko`zga ko`rinmas qirralari go`yoki unga qarshi, u esa bu oqimga qarshi suzayotgandek edi”.⁹⁸ Qahramon hayoti davomida turli savollar bilan yuzlashadi: kimman? , hayotimning manosi nimada ? Shu nuqtada Yusufbek Xoji obrazining paydo bo`lishi va qahramonning uning hayotiy pozitsiyalariga murojaat qilishi voqealarini rivojlantiradi. Bu orqali muallif Qodiriyning hayoti va ijodiy

⁹³ Do`stmuhammad X Yolg`iz.-T.:Mashhur-press, 2019.

⁹⁴ Do`stmuhammad X Yolg`iz.-T.:Mashhur-press,2019.

⁹⁵ Do`stmuhammad X Yolg`iz.-T.: Mashhur-press, 2019.

⁹⁶ Rahmonova X Xurshid Do`stmuhammad nasri badiiyati.-T.:Poytaxt exclusive,2021.

⁹⁷ Do`stmuhammad X Yolg`iz,-T.: Mashhur-press, 2019.

⁹⁸ Do`stmuhammad X Yolg`iz.-T.:Mashhur-press, 2019.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

merosiga, o`y-fikrlariga chuqur kirib boradi. Qahramon jamiyatdagi begonalikni , insonlar o`rtasidagi yuzaki munosabatlarni keskin tanqid qiladi. Shu jarayonda u o`zini yolg`iz his qiladi, ammo bu yolg`izlik unga ma`lum ma`noda kuch ham beradi. Bu ziddiyat orqali qahramon hayotning haqiqatlarini tushunishga intiladi. Muallif bu yerda shaxsiy va ijtimoiy muammolarni birlashtiradi:"Yolg`izlik ba`zan qutblarga olib boruvchi yolg`on darvozadir, lekin ba`zida u insonni o`z ichki dunyosini anglashga yetaklaydi"⁹⁹ Qahramonning yolg`izligi shunchaki tashqi muhit ta`siri emas, balki ichki kechinmalar natijasidir. Yolg`izlik qahramonning ruhiy izlanishlarida yo`l-yo`riq ko`rsatuvchi timsol sifatida gavdalanadi.

“Yolg`iz” qissasida Qodiriy obrazi muallifning o`z xalqining adabiy-madaniy ildizlariga bo`lgan hurmati va uning o`rnini yodga olish istagini ifodalaydi. Bu obraz orqali Xurshid Do`stmuhammad milliy o`zlik anglash va asrab qolish mavzusini ko`taradi.

Qodiriy obrazi qissada shunchaki tarixiy shaxs emas , balki millatning o`z qadr-qimmatini saqlab qolish yo`lidagi kurashning ramzi sifatida ko`rinadi. Uning hayot yo`li va fojeali qismati orqali muallif yolg`izlik, e`tiroz va kurashning universalligi haqida so`z yuritadi. Qodiriyning qismati o`zining ichki kechinmalari bilan uyg`unlashib, o`quvchini millat va adabiyotning ahamiyati haqida chuqur mulohaza qilishga undaydi. Abdulla Qodiriy obrazi qissada nafaqat milliy o`zlikning, balki insoniyatning umumiyligi haqiqatga erishish yo`lidagi kurashining yorqin ifodasidir. Bu obraz orqali Xurshid Do`stmuhammad o`z o`quvchilarini nafaqat adabiy merosni qadrlashga, balki o`zligini anglashga davat etadi.

Xurshid Do`stmuhammad o`ziga xos uslubda yozadi. Qissa psixologizm-insonning ichki dunyosiga chuqur kirib boorish orqali ruhiy kechinmalarni tasvirlash asosiy o`rinda turadi. Muallif hayotiy voqealarni realistik usulda tasvirlar ekan , o`quvchini asar voqealari bilan bog`laydi va uni o`sha muhitni his qilishga yordam beradi.

“Yolg`iz” qissasi insonning hayotdagi o`z o`rnini izlash , yolg`izlikni qabul qilish yoki undan chiqish yo`llarini toppish haqida qimmatli xulosa beradi. Bu asar o`quvchini hayot va uning mazmuni haqida chuqur mulohaza yuritishga undaydi.

Ushbu qissa yolg`izlikning ichki mustahkamlik va ma`naviy yuksalishga eltuvchi yo`l ekanini ko`rsatadi. Milliy qadriyatlarni, o`tmish merosini anglash orqali qahramon hayotining mazmuni boyib, uni yanada yuksak maqsadlarga yetaklaydi. Shu tariqa, "Yolg`iz" qissasi inson va millat ruhiyatining chuqur tahliliga asoslangan, har bir o`quvchini o`zligiga nazar tashlashga chorlaydigan adabiy durdona sifatida qadrlidir.

⁹⁹ Do`stmuhammad X Yolg`iz.-T.:Mashhur-press,2019.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Do`stmuhamed X. Yolg`iz.-Toshkent: Mashhur-press,2019.
2. Do`stmuhamed X. Qissa.-Toshkent.:Yangi asr avlodi,2021.
3. Rahmonova X. Xurshid Do`stmuhamed nasri badiiyati.-Toshkent.: Poytaxt exclusive,2021.
4. Rizayev Sh. Dardman dil iztiroblari// “Yolg`iz” qissasiga yozilgan so`zboshi.-Toshkent.: Mashhur-press, 2019.
5. Rasulova U.XX asr qissachiligi.-Toshkent.:Qamar media, 2020.

